



## SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

### THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF INCREASING THE COMPETITIVENESS OF INDUSTRIAL ENTERPRISES

**<sup>1</sup>Abdugʻaniyev Shoxruxbek  
Shavkatbek oʻgʻli**

<sup>1</sup>Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Korporativ iqtisodiyot va  
boshqaruv" kafedrası oʻqituvchisi. **E-mail:** [shoxa\\_6154@mail.ru](mailto:shoxa_6154@mail.ru)

**ORCID:** 0009-0004-1869-4220

#### Annotatsiya Annotation

**Uzb.** - Mazkur maqolada sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan, boʻlib unda raqobat afzalligiga ega boʻlgan sanoat tarmoqlari guruhlangan, sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishga taʼsir etuvchi omillar tahlil qilgan hamda sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi omillarga qarshi kurashish va raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy yoʻnalishlari aniqlangan. Shuningdek, sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirish bilan bogʻliq asosiy muammolar aniqlangan hamda ularni bartaraf etish boʻyicha takliflar va xulosalar keltirib oʻtilgan.

**Eng.** - This article studies the theoretical and practical aspects of increasing the competitiveness of industrial enterprises, groups industrial sectors with competitive advantages, analyzes the factors affecting the increase in competitiveness of industrial enterprises, and identifies the main areas of combating factors that negatively affect the increase in competitiveness of industrial enterprises and increasing competitiveness. It also identifies the main problems associated with increasing the competitiveness of industrial enterprises and presents proposals and conclusions for their elimination.

#### Kalit soʻzlar: Keywords:

- ❖ *modernizatsiya, sanoat kooperatsiyasi, moliyaviy barqarorlik, mehnat unumdorligi, inflyatsiya, fizik hajmi indeksi.*
- ❖ *modernization, industrial cooperation, financial stability, labor productivity, inflation, physical volume index.*

#### Kirish.

Soʻnggi yillarda milliy iqtisodiyotda tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirish, xususan, yirik sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik-texnologik jihatdan yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng koʻlamda joriy etishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Xususan, "Oʻzbekiston – 2030" strategiyasida "Sanoatning "drayver" sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini toʻliq ishga solish" alohida maqsadlardan biri etib

belgilangan [1]. Shu boisdan ushbu maqsad yoʻlida sanoatda qoʻshilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga etkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish oʻrinlarini yaratish, yirik korxonalar tomonidan import oʻrnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini yoʻlga qoʻygan korxonalarni faol ragʻbatlantirish tizimini joriy qilish, har bir tumanda zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etish kabi muhim vazifalarni amalga oshirilmoqda.

Xususan, iqtisodiyotni modernizatsiyalashda real sektorda faoliyat yuritayotgan yirik sanoat korxonalariga qator iqtisodiy, moliyaviy imtiyoz va qulayliklar berilmoqda. Natijada, ushbu korxonalarning eksportdagi mavqei imkon darajasida saqlanib qolishiga muvaffaq bo'linib, moliyaviy barqarorligi ta'minlanishiga qulay shart-sharoit yaratilmoqda. Darhaqiqat, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti va o'sish sur'ati real sektor korxonalari barqarorligiga, ularning rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq.

Sanoat korxonalari raqobatdoshligini oshirish jarayonida iqtisodiy-moliyaviy munosabatlarni oqilona tashkil etish asosiy masalalardan hisoblanadi. Chunki, korxonaning barqaror rivojlanishi moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanish, ularni taqsimlashda oqilona moliyaviy siyosat yuritish bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu holat o'z navbatida mahsulotlar raqobatbardoshligiga va sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishida ular raqobatdoshligini oshirish nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.**

Ko'pgina iqtisodiy tadqiqotlar mualliflari xususan, M.Портер, Р.Фатхутдинов, Е.Кузнецова, О.Подольяк, Ж.Валтер, У.Оучи kabi iqtisodchilar raqobatbardosh mahsulot (tovar, ish, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish qobiliyatiga ega bo'lgan korxonaning raqobatbardoshligi yuqori bo'lishini alohida e'tirof etishadi [6, 9, 10, 12, 13]. Shu bilan birga, turli mutaxassislar mahsulotlarning raqobatbardoshligini turli ko'rinishlarda ifodalashadi. Ba'zilar mahsulotning raqobatbardoshligini ularga iste'molchilar tomonidan barqaror talab mavjudligi bilan bog'laydilar [7], boshqalari - sifati bilan [3], xaridorlar uchun jozibador bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarning mavjudligi bilan [14], korxonaning ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uni ishlab chiqarish

xarajatlarning eng past darajasini ta'minlash bilan bog'laydi [15, 16].

Yuqorida ta'kidlanganidek, iqtisodchilarning mutlaq ko'pchiligi korxonalarning raqobatbardoshligini mahsulot raqobatbardoshligi toifasiga tenglashtirish tarafdori emas. Birinchidan, korxonaning raqobatbardoshligi nafaqat u ishlab chiqarayotgan mahsulotning mukammallik darajasiga bog'liq. Marketing va savdo faoliyatining sifati va samaradorligi, kompaniya boshqaruvida katta ahamiyatga ega. Ba'zi hollarda, hatto raqobatbardosh mahsulotlarni chiqarish ham korxonaga kerakli daromad keltirmasligi mumkin, chunki yuqorida ko'rsatilgan qiymat zanjirining uni ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan elementlaridan birini tashkil etish samarasizdir. Ikkinchidan, kompaniyaning hayot siklining davomiyligi ko'pincha mahsulotlarning hayot siklining davomiyligiga to'g'ri kelmaydi, bu ko'p hollarda nisbatan qisqa muddatli davrda namoyon bo'ladi. Uchinchidan, mahsulotlarning raqobatbardoshligini baholash, qoida tariqasida, har bir mahsulot uchun individual bo'lib, korxona tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlarning butun assortimentini qamrab olmaydi. Bunday cheklash kompaniyaning mahsulot portfelining ratsionalligini tahlil qilishga imkon bermaydi, uning tarkibi asosan kompaniyaning bozordagi raqobatdosh ustunliklarini belgilaydi. Uchinchi yondashuv tarafdorlari bo'lgan iqtisodchilar raqobatbardoshlikda kompaniyaning yetarlicha uzoq vaqt davomida raqobatdosh ustunliklarni yaratish, oshirish va saqlab qolish qobiliyatini ifodalashadi [17].

Ushbu afzalliklar kompaniyaga boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan raqobatga muvaffaqiyatli dosh berishga, o'zining moliyaviy barqarorligini va biznes qiymatining ijobiy dinamikasini saqlab qolgan holda iste'molchilar, etkazib beruvchilar va investorlar uchun yanada jozibador bo'lish imkonini beradi [11]. Ushbu yondashuvning

afzalligi shundaki, uning mualliflari, bir tomondan, korxonaning ichki kuchli tomonlariga e'tibor qaratgan holda, raqobatbardoshlikni ko'rib chiqadilar, boshqa tomondan, ular bozor munosabatlarining boshqa ishtirokchilari bilan raqobat qilish uchun shakllanadigan raqobatdosh ustunliklarning muhimligini ta'kidlaydilar, ya'ni ular kompaniyaning raqobatbardoshligining ichki va tashqi omillariga e'tibor berishadi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, raqobatbardoshlikni raqobatbardoshlik qobiliyati deb ta'riflovchi tadqiqotchilar korxona raqobatbardoshligining asosiy manbalarini ko'rsatmasdan, tushunchani talqin qilishga haddan tashqari umumiy tarzda yondashadilar.

Mahalliy iqtisodchi olimlarning fikricha, cheklangan resurslarga ega bo'lish korxona faoliyatini boshqarishning yaxshi tashkil etilgan tizimi, strategik va operatsion boshqaruv sohasidagi so'nggi yutuqlarni qo'llash sharoitidagina korxona raqobatbardoshligining hal qiluvchi omiliga aylanadi. Bu korxonaning hozirgi yoki potensial raqobatчилardan hech biri tomonidan amalga oshirilmaydigan samarali biznes modelini qurish qobiliyatidadir va shu bilan birga bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga raqobatчилarga qaraganda tezroq moslashuvni ta'minlaydi [2, 4, 5, 8].

Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini baholash va ta'minlash muammolari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar yetarlicha yuqori nazariy va amaliy ishlanma darajasiga ega bo'lishiga qaramay, raqobatbardoshlikni baholash va

takomillashtirish jarayonining bir qator masalalari va vazifalari hozirgi vaqtda to'liq hal qilinmagan. Shuni hisobga olish kerakki, jahon iqtisodiyotining globallashuvi va xalqaro korporatsiyalarning shakllanishi turli mamlakatlarda ishlab chiqarishni amalga oshirish va tayyor mahsulotlarni bir-biridan keskin farq qiluvchi bir nechta maqsadli bozorlarda sotish mumkin bo'lgan vaziyatni yaratdi, bu ham korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish hisobga olinishi lozim.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur maqolada sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishda analiz, sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash usullari qo'llanilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

O'zbekiston sanoatining rivojlanish xususiyati sanoat tarmoqlarining qayta ishlash sohalarida fond qaytimi va mehnat unumdorligining jadal o'sish tendensiyasiga erishganligi hisoblanadi. Qayta ishlash tarmoqlarida birinchi kategoriyali kuchli raqobatbardosh guruhga sanoatning quyidagi xom-ashyo va qazib chiqarish sektorlari kiradi: neft-gaz, rangli metallurgiya, paxtani qayta ishlash sanoati. Ushbu tarmoqlar hissasiga mamlakat sanoat eksportining 70 foizdan ortig'i to'g'ri keladi. Tashqi bozorda tarmoqni raqobatbardoshligini aks ettiruvchi ko'rsatkich hisoblangan umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmida eksport mahsulotlari ulushi o'sish tendensiyasiga ega.

### **1-jadval**

#### **O'zbekistonda raqobat afzalligiga ega bo'lgan sanoat tarmoqlari<sup>1</sup>**

| <i>Guruhlar</i>                                      | <i>Iqtisodiyot sektorlari</i> | <i>Iqtisodiyot tarmoqlari</i>                                      | <i>Raqobat afzalliklari</i>              |
|------------------------------------------------------|-------------------------------|--------------------------------------------------------------------|------------------------------------------|
| <b>Kuchli raqobat mavqeiga ega bo'lgan tarmoqlar</b> | Xomashyo va qazib chiqarish   | Rangli metallurgiya, paxtani qayta ishlash, neft-gaz, og'ir sanoat | Yuksak raqobatdoshlik afzalliklariga ega |

<sup>1</sup> Muallif tomonidan shakllantirilgan.

|                                                             |                                                                           |                                                                         |                                                                |
|-------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------|
| <b>Nisbiy raqobatdoshlik mavqeiga ega bo'lgan tarmoqlar</b> | <i>Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish</i>                                | <i>mashinasozlik, avtomobilsozlik, engil, kimyo, oziq-ovqat</i>         | <i>Nisbatan past raqobatdoshlik afzalliklariga ega</i>         |
| <b>Potensial raqobatdoshlik mavqeiga ega tarmoqlar</b>      | <i>Yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish</i> | <i>Mikroelektronika-axborot kompleksi, farmasevtika, mikrobiologiya</i> | <i>Potensial rivojlangan raqobatdoshlik afzalliklariga ega</i> |

Ikkinchi guruh raqobatbardoshlik salohiyatiga ega bo'lgan istemol tovarlari ishlab chiqarishga yo'naltirilgan tarmoqlarga quyidagilar kiradi: engil sanoatning qayta ishlash tarmoqchalari, oziq-ovqat sanoati, avtomobilsozlik. Mahalliy istemol tovarlari raqobatbardoshligi indeksi xom ashyo ishlab chiqarishdagi shakllangan raqobatbardoshlik ko'rsatkichiga nisbatan birmuncha past.

Umuman olganda ayrim sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini pastligi muammosi saqlanib qolmoqda. Qayta ishlash sektori tarmoqlaridagi asosiy mahsulotlarini ishlab chiqarishni ichki xarajatlari jaxondagi o'rtacha narx darajasiga yaqinlashib qolgan holda, ba'zi mahsulotlar turlari bo'yicha o'rtacha jahon bahosiga nisbatan yuqori. Ushbu tendensiya moddiy texnika va energetika xarajatlari ulushini yuqori darajada saqlanib qolayotganligi bilan belgilanadi.

Iqtisodiyotning sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirish va rag'batlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish hamda hayotga keng joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Sanoatda innovatsion faoliyat yurita oladigan kadrlar tayyorlash, tarmoqlarda ilg'or texnologiyalarga asoslangan chuqur texnologik modernizatsiyalash va innovatsion rivojlantirishni amalga oshirish, yangi texnologiyalarni yaratish imkonini beruvchi tizim bilan xarakterlanadi.

Sanoat korxonalarida raqobatbardoshligini oshirishga bir vaqtning o'zida bozor munosabatlarining sub'ekti va ob'ekti sifatida ishtirok etishi, shuningdek u turli omillar dinamikasiga ta'sir etishning turli imkoniyatlariga ega ekanligini hisobga olgan holda ularni ichki va tashqi omillarga bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ichki omillar bevosita sanoat korxonalarini faoliyatini boshqarishda yuzaga keladigan tizim bilan bog'liq, tashqi omillar esa korxonalarga deyarli bog'liq bo'lmaydi va korxona ularga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Jumladan, sanoat tarmoqlarida raqobatbardoshlikni oshirishga ta'sir etuvchi ichki omillar quyidagilardan iborat:

- mol-mulkning holati;
- moliyaviy resurslarning holati;
- boshqarish salohiyati;
- marketing salohiyati;
- ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik

ishlarini tashkil etish darajasi.

Ayniqsa, beqaror iqtisodiyot sharoitida mamlakatdagi makroiqtisodiy holat barcha tarmoqlarda yuzaga keladigan noqulay vaziyatning asosiy sabablari hisoblanadi. Ushbu sanoat tarmoqlarida raqobatbardoshlikni oshirishga ta'sir etuvchi tashqi omillarning asosiysi hisoblanib, qolganlari quyidagilardan iborat:

- inflyatsiya, valyutalar kursining o'zgarishi;
- soliq, kredit-moliyaviy, bojxona, sug'urta, investitsiya siyosati;
- mamlakatning ilm-fan salohiyati;
- to'lov qobiliyatining talab darajasi va dinamikasining o'zgarib turishi;
- ichki va tashqi talabning o'zgarishi.

Fikrimizcha, sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishda quyidagi asosiy o'ziga xos xususiyatlarni ajratish lozim:

- tashqi va ichki omillarning o'zaro bog'liqligi;
- tashqi omillar ta'sirining kuchayishi va ularning murakkabligi;
- korxonalar faoliyatiga ta'sir etuvchi omil to'g'risida axborot va uning ishonchlilik

darajasidagi noaniqlik, ya'ni tashqi axborotlar qanchalik noaniq bo'lsa, u yoki bu tashqi omil qanday oqibatlarga olib kelishini aniqlash shunchalik qiyin bo'ladi.

Sanoat tarmoqlarida raqobatbardoshlikni oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga qarshi kurashish va raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida ishlab chiqarishni tashkil qilish, texnika va texnologiyalarni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:


– yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish uchun to'liq yangi texnologik jarayonlarni yaratish va qo'llash orqali

mahsulot sifatini oshirish, xom-ashyodan foydalanishni yaxshilash va xom-ashyo bazasini kengaytirish;

– ishlab chiqarish quvvatlaridan oqilona foydalanish, texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash maqsadida mavjud tizimni takomillashtirish;

– ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash darajasini oshirish, texnologik jarayonlarni boshqarishda avtomatlashgan tizimni yaratish;

– tarmoqda ixtisoslashuv va kooperatsiya aloqalarini yangi usullaridan keng foydalanish.




**1-rasm. 2020-2024 yillarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi, trln. so'm [18]**

Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, so'nggi yillarda mamlakatimizda sanoat korxonalarini rag'batlantirishga qaratilgan ta'sirchan chora-tadbirlarning faol tarzda amalga oshirilishi natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ham ortib bormoqda. Xususan, 2024-yilda respublika korxonalari tomonidan 885,8 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilga nisbatan 226,8 trln. so'mga oshgan. Shuningdek, 2023 yilga

nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,8 foizni tashkil etgan.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Navoiy viloyatida (133 706,3 ming so'm), Toshkent shahrida (55 499,8 ming so'm) hamda Toshkent viloyatida (45 168,2 ming so'm) o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (23 830,6 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.



**2-rasm. Ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi (trln. so'mda) [18]**

2024 yilda sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 753,6 trln so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 85,1 foizni tashkil etgan. Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan-bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o'z ichiga oladi.

2023-yil bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,3 foizni (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 1,5 foiz), o'rta-yuqori texnologiyali – 22,2 foiz (24,6 foiz), o'rta-quyi texnologiyali – 37,7 foiz (37,5 foiz), quyi texnologiyali 38,8 foiz (36,4 foiz)ni tashkil etgan.

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, tirkamalar, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 20,8 foiz (2023- yilning

yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,5 foiz), metallurgiya sanoatining ulushi – 22,7 foiz (2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,3 foiz), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,9 foiz (2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,6 foiz)ga to'g'ri kelgan.

Ma'lumki, mamlakatimiz etakchi tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, xalqaro sifat standartlariga o'tish bo'yicha turli muddatlarga mo'ljallangan dasturlar ishlab chiqilgan va izchil ravishda amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, bu jarayonda mahalliyashtirish darajasi ham muhim rol o'ynamoqda. Mahalliyashtirish darajasi – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi. Mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi.

## 2-jadval

### Sanoat korxonalarida mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishiga oid ko'rsatkichlar [18]

| Ko'rsatkichlar                           | 2023-y. | 2024-y.  |
|------------------------------------------|---------|----------|
| Loyihalar soni, birlikda                 | 2003    | 2270     |
| Korxonalar soni, birlikda                | 988     | 1101     |
| Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm       | 82799,9 | 110199,1 |
| Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlikda | 11533   | 15311    |

Respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasiga kiritilgan 2270 ta loyiha bo'yicha 110,2 trln so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 1136,3 mln.

AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga 15 311 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ahamiyati benihoya katta. Buning afzalliklariga quyidagilarni keltirish o'rinli:

birinchidan, xorijiy investitsiyalar ko'magida korxonalarga zamonaviy texnika va texnologiyalar joriy qilinib, eksportga

mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanadi;

ikkinchidan, import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning etakchi sohalariga yo'naltirish orqali pirovardida aholining turmush darajasini oshirish imkoni yaratiladi;

uchinchidan, korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlari, moddiy-texnik bazasi yangilanadi va ular texnik jihatdan qayta qurollanadi;

to'rtinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlaydigan korxonalar barpo etiladi.

Mamlakatimizda sanoat korxonalari raqobatbardoshligini yuksaltirishga qaratilgan qator choralar belgilangan. Mikro darajada tezkor modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantirish, moslashuvchan zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish, xalqaro sifat andozalari va tejamkorlik tartibiga o'tish, energiyani tejash, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish shular jumlasidandir. Shu bois ko'plab muhim xo'jalik subektlari hozirgi kunda o'z oldiga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishni maqsad qilib qo'ygan.

Makro darajada esa ichki talabni rag'batlantirish, eksportga yo'naltirilgan korxonalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq tadbirlarni amalga oshirish va izchil rag'batlantirish, narx siyosatini takomillashtirish, xususan, mahsulot ishlab chiqarish uchun xomashyo asosini shakllantiruvchi monopolist korxonalar tomonidan belgilanadigan narxlarning o'sishini ushlab turish, soliq va bojxona imtiyozlari aynan shunga xizmat qiladi.

Sanoat raqobatbardoshligi darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, shakllangan makroiqtisodiy va raqobat muhiti, ilmiy-texnik salohiyat, xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish ko'lami, investitsiyalar, moliya tizimining sifati va samaradorligi, infratuzilmaning holati, mehnat

resurslarining malakasi kabilar eng muhim omillardir.

Jahon tajribasining tahliliga nazar tashlasak, innovatsiya texnologiyalari rivojlangan mamlakatlar muayyan yutuqlarga erishgan. Shuningdek, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanib, global miqyosda raqobatga kirishayotgan korxonalarda ko'p sohalarda o'sishning yuksak sur'atlari kuzatiladi. Aynan muayyan ishlab chiqarish omili – texnologiyalar, materiallar, narxlar, xizmatlar, demografik vaziyat va hatto geosiyoiy omillar o'zgarishiga asoslangan innovatsiyalar yuqori qo'shimcha qiymat va boylikni yaratadi, samaradorligi va foydasi yuqori sohalarga qarab resurslarning oqishiga olib keladi.

### **Xulosa va takliflar.**

O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, bugungi kunda, sanoat korxonalarini barqaror sur'atlar bilan o'sib borayotganligiga qaramay, sanoat korxonalarida bir qator ichki muammolar mavjud bo'lib, mazkur holat sanoat korxonalarini strategik rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bular quyidagilardan iborat:

- mahalliy xomashyolarning yetishmasligi natijasida xorijdan import qilinishi;
- sanoat korxonalarida moliyaviy resurslarning samarali boshqaruvi to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi oqibatida to'la quvvat bilan ishlamasligi;
- bankdan olingan xorijiy valyutadagi kreditlar uchun foiz to'lovlari valyuta kurslarining oshib ketishi hisobiga ortishi va valyuta kursidagi farqlardan ziyon ko'rish;
- debitorlik qarzlari o'z muddatida undirilmasligi, tuzilgan shartnomalarning bajarilishini to'liq nazoratga olmaslik, menejment ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi;
- aylanma mablag'larning yetishmasligi;
- sanoat korxonalarida foydalanilayotgan ishlab chiqarish vositalarining jismoniy va ma'naviy eskirganligi natijasida, ularda ishlab

chiqarilayotgan mahsulotning tannarxi oshib ketishi va sifati pastligi.

Ba'zi holatlarda sanoat korxonalarini barqaror ishlamasligiga tashqi va ichki omillar birgalikda ta'sir ko'rsatadi, va mazkur muammolar yirik sanoat korxonalarida yuzaga kelmoqda. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylanishi lozim. Chunki sanoat tarmog'idagi muammolarning bartaraf etilishi mamlakat iqtisodiyotini bundan yuqori cho'qqilarni zabt etishi uchun birlamchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Fikrimizcha, mamlakatimizda sanoat korxonalari raqobatdoshligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida innovatsion mahsulotlar salmog'ini oshirish, mahsulotlarning energiya sig'imini kamaytirish yuli bilan sanoat mahsulotlarining raqobat bardoshligini keskin ko'tarish. Hozirgi davrda respublikamiz sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning umumiy hajmida innovatsiya mahsulotlarining salmog'i ancha past ko'rsatkichni tashkil etmoqda.

2. Sanoat korxonalarida narxlarning o'sishi ishlab chiqarish hajmining o'sishidan yuqori bo'lishga yo'l qo'ymaslik maqsadida birinchidan, ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar miqdorining o'sish sur'ati mehnat unumdorligining o'sish sur'atidan yuqori bo'lishining oldini olish va ikkinchidan, tabiiy monopoliya hisoblanadigan sanoat korxonalari

tomonidan shshshb chiqariladigan mahsulotlar narxi o'sishiga nisbatan iqtisodiy normativlar joriy qilinishi lozim. Mazkur iqtisodiy normativlar tabiiy monopoliyalar ishlab chiqaradigan mahsulotlar va xizmatlar hajmining o'sish surati sanoat mahsulotlari baholarining umumiy indeksidan yuqori bo'lishining oldini olish imkonini berishi lozim.

3. Iqtisodiyotning sanoat tarmog'ida faoliyag yuritayotgan qo'shma korxonalarining to'la quvvatda ishlashini ta'minlash. Buning uchun:

- xorijdan import orqali etkazib berilayotgan mashina va uskunalarining sifatini nazorat qilish amaliyotini takomillashtirish;

- qo'shma korxonalarining ishlab chiqarish quvvatiga ta'sir qiluvchi omillari o'zgarishining prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishni takomillashtirish;

- mahalliy xom ashyodan foydalanish darajasini oshirish talab etiladi;

- mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish;

- korxonalarining ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanish darajasini oshirish;

- ma'naviy va jismoniy eskirgan asbob-uskunalarda sifatsiz va "ombor uchun" mahsulotlar ishlab chiqarishni oldini olish maqsadida yangi moddiy-texnika bazasini barpo etish;

- yangi tashkil etilayotgan korxonalar faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish;

- sanoat tarmog'i rivojlanishida kichik korxonalar sonini yanada ko'paytirish va ularni tashkil etish chora-tadbirlarini rag'batlantirish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "“O'zbekiston - 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-sonli Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023 y., 06/23/214/0984-son; 21.03.2025-y., 06/25/51/0261-son; 26.03.2025 y., 06/25/56/0274-son.

2. Akramov E.A. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili. - T.: "Moliya", 2003. -223 b.

3. Андреева Е. Л. Организационные предпосылки конкурентоспособности предприятия // Проблемы прогнозирования. 2003. № 4. С. 123–130.

4. Burxanov A.U. Korxonalar moliyaviy barqarorligi: nazariya va amaliyot. Monografiya. - Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019. -160 b.

5. Vahobov A., Ibrohimov A. Moliyaviy tahlil. – Darslik. – T.: “Sharq”, 2002. – B. 25–26;
6. Валтер Ж. Конкурентоспособность: Общий подход // Проект Рос.-Европ. центра эконом. политики (РЕЦЭП). М., 2005. 52 с.
7. Ершова И. В. Конкурентные стратегии технологически ориентированных предприятий. Екатеринбург: УГТУ–УПИ, 1999. 151 с.
8. Zaynalov J., Sattorov T. Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari // Moliya. –Toshkent, 2010. -№2. –B. 12-17.
9. Портер М. Конкуренция / пер. с англ. М.: Изд. дом «Вильямс», 2005. 608 с.
10. Фатхутдинов Р. А. Стратегическая конкурентоспособность: учебник. М.: ЗАО «Изд-во Экономика», 2005. 504 с.
11. Каткало В. С. Эволюция теории стратегического управления. СПб.: Издат. дом С.-Петербур. гос. ун-та, 2008. 548 с.
12. Кузнецова Е. Ю., Подоляк О. О. Стратегии обеспечения конкурентоспособности предприятий нефтегазового комплекса // Проблемы экономики и управления нефтегазовым комплексом. Науч.-экон. журнал. 2010. № 4. С. 31–34.
13. Оучи У. Методы организационного производства подходы. М. : Экономика, 1984. 184 с.
14. Рубин Ю. Б. Конкуренция: упорядоченное взаимодействие в профессиональном бизнесе. М.: Маркет ДС, 2008. 464 с.
15. Сергеев И. В. Экономика предприятия: учеб. пособие. М.: Финансы и статистика, 2000. 304 с.
16. Шоколенко В. В. Конкурентоспособность машиностроительных предприятий: дисс. ... канд. экон. наук. М., 2005. 172 с.
17. Clark J. M. Towards a Concept of Workable Competition // American Economic Review, 1940. Vol. 30 (2). P. 241–256.
18. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. (<https://stat.uz/uz>)